

# YANGI O'ZBEKISTONNING UMIDLI YOSHLARI

YO`NALISHLAR

ANIQ FANLAR
TABIIY FANLAR
TEXNIK FANLAR
IQTISOD FANLARI
PEDAGOGIKA

FILOLOGIYA
SAN'AT VA MADANIYAT
KITOBXONLIK YO'NALISHI
IJTIMOIY-GUMANITAR

28 fevral
2022

**EDITORS**

**O. Ziyadullaev** - *Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**S. Madayeva** - *Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan*
**R. Bekmirzayev** - *Professor, Doctor of Physical Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute*
**G. Nurshiyeva** - *Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan*
**G. Gaffarova** - *Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**Y. Safronova** - *Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia*
**G. Ruzmatova** - *Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan*
**B. Eshchanov** - *Associate Professor, Doctor of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical Sciences*
**N. Shermuhamedova** - *Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan*
**B. Khusanov** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**M. Makhmudov** - *Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**K. Bobokhudjayev** - *Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**K. Tulantayeva** - *Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan*
**O. Naumenko** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS*
**M. Rakhimshikova** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University*
**M. Gulyamova** - *Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University*
**N. Makhmudova** - *Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University*
**M. Sultonov** - *Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute*
**N. Zolotyx** - *Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia*
**A. Kholmakhmatov** - *PhD in Political Sciences, Ministry of Higher and Secondary Specialized Education*
**D. Bozorov** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan*
**D. Karshiyev** - *Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute*
**D. Karshieva –** *Doctor of Philosophy in Pedagogy, Lecturer Chirchik State Pedagogical Institute*
**T. Shevchenko** - *Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia*
**C. Nasritdinov** - *Associate Professor, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering*
**S. Eshonkulova** - *Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute*
**N. Soatova** - *Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute*
**Z. Yakhshiyeva** - *Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical Institute*
**J. Ramatov** - *Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University*
**U. Khodjamkulov** - *Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**S. Botirova** - *Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**B. Yuldashev** - *Associate Professor, Tashkent Paediatric Medical Institute*
**Y. Islamov** - *Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute*
**S. Allayarova** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan*
**M. Djumabekov** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University*
**K. Toshov** - *Senior Teacher, PhD, National University of Uzbekistan*
**T. Khojiyev** - *Associate Professor, PhD, National University of Uzbekistan*
**T. Kuyliyev** - *Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State Agrarian University*
**A. Shofkorov** - *Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**N. Kholikova** - *Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**I. Ergashev** - *Professor, Doctor of Political Sciences, National University of Uzbekistan*
**J. Davletov** - *Senior Teacher, PhD in Philosophical Sciences, Urgench State University*
**A. Makhmudov** - *PhD in Economics, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan*
**S. Korayev** - *Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical Institute*
**F. Abdullaev** - *Associate Professor, PhD in Economics, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan*
**N. Umarova** - *Associate Professor, PhD in Psychological Sciences, Tashkent State Pedagogical University*

# O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN JARAYONNING MAZMUNI

**Halim Ravshanovish HASANOV**
Buxoro davlat universiteti
musiqa kafedrasi o'qituvchisi

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarni vatanparvarlik hissini rivojlantirish, shakllantirish jarayonining mazmuni haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:**Vatanparvarlik, fidoiylik, mard, dovyurak, xalq qahramonlari.

В данной статье рассматривается содержание процесса формирования у студентов чувства патриотизма в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** патриотизм, преданность, мужество, отвага, национальные герои.

This article discusses the content of the process of forming a sense of patriotism among students in the educational process.

**Key words:** patriotism, devotion, courage, bravery, national heroes.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yurt go'zalligini his etishga o'rgatish orqali vatanparvarlik tuyg'usi shakllantiriladi. Chunki har bir yozuvchi va shoir ijodini o'lka go'zalligini ulug'lovchi, qadrlashga da'vat etuvchi, undan zavqlanish tuyg'usini jo'sh urdiruvchi satrlarsiz tasavvur etish qiyin, badiiy asarlarni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularda vatanparvarlik, vatanni sevish tuyg'usi mustahkamlanadi. Bu har bir sog'lom avlodda o'z xalqining an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash bilan birga, o'z vatani, millatining butun jahon hamjamiyatida teng huquqli mustaqil davlat sifatida namoyon bo'lishiga hissa qo'shuvchi haqiqiy komil insonni shakllantirishni taqozo qiladi. Bu jahonga dovrug' taratgan, dunyo ilm-faniga, madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan ulamo va fuzalolarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Farobiy, Al-Termiziy, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Bobur, Ahmad Yassaviy, Ismoil Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoyi kabi ulug' zotlarning vatanga bo'lgan muhabbati va sadoqati oldida ta'zim bajo keltirishni talab etadi. Shuningdek, xalq qahramonlari, bosqinchilariga qaqshatgich zarba bergan mard, dovyurak, vatan himoyasini o'z hayotidan ustun qo'ygan To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Muqanna, Temurmalik, bobomiz Amir Temurdek ulug' insonlar oldida tiz cho'kib, qasamyod etmok, Vatan himoyasini, el-yurt tinchligi va farovonligini asramoq har bir yoshning muqaddas burchi bo'lib qolishga da'vat etishini ham talab qiladi. Albatta, bu ulug'vor vazifalarni amalga oshirish uchun faqatgina eng o'tkir qurol bo'lgan badiiy adabiyotning tarbiyalovchilik

imkoniyatlaridan keng foydalanish, buning uchun jarayonidagina emas, balki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham ertangi kun egalari, chinakam vatanparvarlarni mustaqillikka sadoqat ruhida tarbiyalash lozim. O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, avvalo, ona vatanga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash, uning ravnaqi uchun har bir inson hissa qo‘shishini o‘rgatishda adabiy asar qahramonlari, tarixiy shaxslar, vatan fidoyilari eng yorqin namuna bo‘la oladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining madaniy merosi hisoblangan san’at, tarixiy va me’morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilish talab etiladi. Zero, bir necha asrlar davomida yaratilgan obidalarimiz masjid, madrasa, saroy, abservatoriya, osmonupar minoralar, maqbaralar, boy, ko‘xna va navkiron tariximiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston yodgorliklari kimlarni hayratga solmagan deysiz. Ular o‘quvchilar qalbida ham o‘tmish tariximizga, ajdodlarimizning yuksak ilm va kasb mahoratiga cheksiz hurmat, ular bilan fahrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi. O‘qituvchi o‘quvchi-yoshlarni o‘z millatiga, ona vataniga, yurtiga sodiq bo‘lishni o‘rgatishi, ularda sog‘lom kuch, tafakkur, iymon va pok vijdonni shakllantirish, vatan oldidagi mas’uliyati, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga hissa qo‘shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan sidqi dildan mehnat qilish, xalqning shon-shuxratini, manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lishiga da’vat etishning turli usul va vositalarini ham topishga harakat qilgandagina o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyaning barcha ko‘rinishlaridan foydalanish, uning yangi-yangi shakllarini izlab topish va yaratish, eng avvalo, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga vatanni ardoqlash qadrlash o‘rgatish lozim. Zero, vatan go‘zalligi shu qadar maroqli tushunchaki, u har bir yurt egasi qalbida faxr, g‘urur uyg‘otishga qodir.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017,.

2. Hasanov H.R. “Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlar aro aloqadorlikni pedagogik asoslari” Monogrofiya .Buxoro: “ Durdona”, 2021.

3. Hasanov H.R. Kultura i iskusstvo v epoxu Amira Temura I temuridov. Вестник науки и образования, 119-122. 2020

4. ANSAMBL IJROCHILIGI FAOLIYATING TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI H.R Hasanov Scientific progress 1 (6), 650-655. 2021

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12. | NOROVA SHOIRA UMRZOQOVNA | FARG'ONA-TOSHKENT MAQOM YO'LLARI HAQIDA | 72 |
| 13. | SANOQUL DO'STOV | MUSIQA DARSIDA O'QUVCHILAR MUSIQIY SAVODXONLIGINI TARKIB TOPTIRISH. | 78 |
| 14. | SHAMSIYEV SHERZOD ISTAMOVICH<br><br>MO'SINOVA DILBAR SHAKIROVNA | XOR ASARINI IJROSI USTIDA ISHLASH USULLARI. | 83 |
| 15. | UMUROVA MA'RIFAT YOSHIYEVNA | O'QUVCHILARDA VATANPARVARLLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOT VA MUSIQANING ROLI | 87 |
| 16. | HALIM RAVSHANOVISH HASANOV | O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN JARAYONNING MAZMUNI | 92 |
| 17. | URALOVA PALINA NURALI QIZI<br><br>NAZAROVA GULCHEHRA XAMRAKULOVNA | INSON EKOLOGIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI BIOSFERA | 95 |
| 18. | MIRZAYOROVA BARNO | BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING AHAMIYATI | 100 |
| 19. | NURMATOVA BARCHINOY | BIOLOGIYANI O'QITISH SHAKLLARI | 103 |
| 20. | NILUFAR OMONOVA | OLIY TA`LIM JARAYONIDA KOOPERATIV YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH | 106 |
| 21. | ВОХИДОВА ГУЛХАЁ КОДИРОВНА | БИОЛОГИЧЕСКИЕ РАЗНООБРАЗИЕ И ПУТИ ЕГО СОХРАНЕНИЯ | 111 |